

**JINOYAT PROTSESI ISHTIROKCHILARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH ORQALI OLINGAN  
DALILLARNING MAQBULLIGI**

Qodirova Umidaxon Jumaqo'zi qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy-odil sudlov talabasi

Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Telefon raqam: +998 88 033 18 88

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash choralari jarayonida olingan dalillarning maqbulligi masalasi yuzasida so'z boradi. Xususan, dalillarni yig'ish va tekshirishda inson huquqlarini himoya qilish, shuningdek, guvohlar, jabrlanuvchilar va ayblanuvchilarning xavfsizligini kafolatlash mexanizmlari ham tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalari va xorijiy davlatlar tajribasi asosida dalillarning qonuniylik, ishonchlik va maqbullik mezonlari o'rganiladi. Shuningdek, amaliyotda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** jinoyat protsessi, dalillar, maqbullik, xavfsizlik choralari, protsessual kafolat, ishtirokchilar himoyasi.

**ADMISSIBILITY OF EVIDENCE OBTAINED BY ENSURING THE SAFETY OF PARTICIPANTS IN THE  
CRIMINALADADMISSIBILITY OF EVIDENCE OBTAINED BY ENSURING THE SAFETY OF  
PARTICIPANTS IN THE CRIMINAL PROCESS**

Qodirova Umidakhon Jumakuzi kizi

Criminal justice student of Tashkent State

Law University Tashkent, Republic of Uzbekistan

Phone number: +998 88 033 18 88

**Annotation:**

This article will talk on the surface of the issue of the acceptability of evidence obtained in the process of measures to ensure the safety of participants in criminal proceedings. In particular, the mechanisms for protecting human rights in the collection and examination of evidence, as well as guaranteeing the safety of witnesses, victims and defendants, are also subject to analysis. The article explores the norms of the code of Criminal Procedure of the Republic of Uzbekistan and the criteria for legality, reliability and acceptability of evidence based on the experience of foreign countries. Also, problems encountered in practice and proposals for their elimination are put forward.

**Keywords:** Criminal Procedure, Evidence, acceptability, security measures, procedural warranty, participant protection. ranty, participant protection.

**ДОПУСТИМОСТЬ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ, ПОЛУЧЕННЫХ ПУТЕМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ  
УЧАСТНИКОВ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА ДОПУСТИМОСТЬ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ, ПОЛУЧЕННЫХ  
ПУТЕМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ УЧАСТНИКОВ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА**

Кодирова Умида Джумакози кизи,  
Студентка факультета уголовного  
правосудия Ташкентского государственного  
юридического университета  
Ташкент, Республика Узбекистан  
Тел.номер: +998 88 033 18 88

**Аннотация:**

В этой статье будет поверхностно рассмотрен вопрос о приемлемости доказательств, полученных в процессе принятия мер по обеспечению безопасности участников уголовного судопроизводства. В частности, анализу также подлежат механизмы защиты прав человека при сборе и изучении доказательств, а также гарантии безопасности свидетелей, потерпевших и обвиняемых. В статье исследуются нормы Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан и критерии законности, достоверности и приемлемости доказательств, основанные на опыте зарубежных стран. Также выдвигаются проблемы, с которыми приходится сталкиваться на практике, и предложения по их устранению.

**Ключевые слова:** Уголовный процесс, Доказательства, приемлемость, меры безопасности, процессуальные гарантии, защита участника. краткость, защита участника.

Bilamizki, jinoyat protsessida guvoh, jabrlanuvchi va boshqa ishtirokchilarning xavfsizligi - sud adolatining ajralmas qismidir. Bugungi kunda shaxs qadr-qimmatini, xavfsizligi, shaxsiy daxlsizligi haqida keng muhokamalar bo'lishiga qaramasdan, amaliyotlarda jinoyat protsessining ishtirokchilari bo'lgan ushbu shaxslarning ayblanuvchi yoki uchinchi shaxslar tomonidan bosim va tahdidlarga uchrash, bu esa ko'rsatmalarni buzilishi, haqiqatni aniqlash qiyinlashgan holatlariga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, xavfsizligi ta'minlanmagan guvohning ko'rsatmasi ishonchsiz bo'lishi mumkinligi natijasida dalillarning maqbulligi shubha ostida qolmoqda. Shu sababli ko'plab davlatlarda guvohlarni yashirin so'roq qilish, davlat himoyasiga olish, shaxsiy ma'lumotlarini sir saqlash kabi mexanizmlar ishlab chiqilgan. O'zbekistonda ham bunday tartib mavjud bo'lib, u "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarining himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ifodalangan, lekin ularning qo'llanishi, dalil sifatiga ta'siri va advokatlar himoya huquqi bilan muvozanati doimo muhokama talab qiladi. Asosiy savol shunday: shaxs xavfsizligi ta'minlangan holda olingan dalil qanchalik ishonchli va sud uchun maqbul bo'ladi?

Ushbu maqolaning sosiy maqsadi - guvoh xavfsizligi choralarning huquqiy asoslari va qo'llanilish mexanizmlarini o'rganish, dalil maqbulligi bilan bog'liq amaliy muammolarni tahlil qilish hamda takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada normativ-huquqiy tahlil, taqqoslash va amaliy ishlar misollariga tayangan holda xulosa chiqariladi.

Tadqiqot natijalari jinoyat protsessida adolat va shaffoflikni kuchaytirish, guvohlarning huquq va xavfsizligini izchil himoya qilishga xizmat qiladi.

Jinoyat protsessul huquqida dalil tushunchasi va maqbullik mezonlarining mohiyatini tushunish ushbu mavzuga qadam qo'yishning asosiy shartidir.

Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi.<sup>1</sup> Ularga guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy, yozma va raqamli dalillar, ovoqli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari kiradi. Jinoyat protsessining ishtirokchilari dalillarni taqdim etgandan so'ng ularni baholash masalasida biz dalillarning maqbulligi shartiga duch kelamiz. Dalillarning maqbulligi shartlari ko'plab ilmiy adabiyotlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenum qarorida ham keltirilgan. Unga ko'ra, dalillar birinchi o'rinda vakolatga ega bo'lgan tegishli subyekt tomonidan olingan bo'lishi, faktga oid ma'lumotlar faqat JPK 81-moddasining ikkinchi qismida qayd etilgan manbalardan olingan bo'lishi, dalil uni olish bilan bog'liq protsessual harakatni o'tkazishga oid qoidalar va tartibga rioya etilgan holda olingan bo'lishi, dalilni olishda tergov va sud harakati jarayoni va natijalarining qayd etilishiga doir qonunning barcha talablariga amal qilingan bo'lishi shart ekanligi belgilangan. Shundan tushunishimiz munkinki, dalillar maqbul bo'lishida guvohlarning, jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlari ham muhim ahamiyatga ega ekan. Chunki 81-moddaning ikkinchi qismida ularning ko'rsatmalari dalil sifatida olinishi berilgan. Shunday ekan guvoh va jabrlanuvchilarning xavfsizligi masalasiga ham e'tibor qaratishimiz lozim. Chunki ulardan olingan ko'rsatmalar daliliy ahamiyatga ega ekan, ularning xavfsizligini qonuniy tartibda mustaxkamlab qo'yish maqsadga muvofiqdir. Xususa, bu masalada chiqarilgan qonuning vazifalari jabrlanuvchilarning, guvohlarning va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i hamda mol-mulkiga tajovuz tahdidi mavjud bo'lganda qo'llaniladigan, jinoyatlarning oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko'maklashadigan, xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralari o'z ichiga oladigan chora-tadbirlar tizimini belgilashdan, shuningdek ularni qo'llashning asoslari hamda tartibini aniqlashdan iboratdir.<sup>2</sup>

Ularga qo'llanilayotgan xavfsizlik choralari quyidagilardan iborat:

- 1) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlash;
- 2) shaxsni, uy-joyini va boshqa mol-mulkni qo'riqlash;
- 3) himoya qilinuvchi shaxsga maxsus individual himoya vositalarini va texnik vositalarni berish;
- 4) vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish;
- 5) boshqa yashash joyiga ko'chirish, ish (xizmat) yoki o'qish joyini o'zgartirish;
- 6) hujjatlarni almashtirish;
- 7) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanilishini cheklash;
- 8) qamoqda yoki jazoni o'tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan qo'shimcha xavfsizlik choralari ta'minlash.<sup>3</sup>

Yuqoridagi normalardan tushunishimiz munkinki, himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlash maxfiylik guvoh va jabrlanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari oshkor bo'lmasligini kafolatlaydi va bu chora shaxsning qo'rquvsiz va to'liq ko'rsatma berish

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.01.2019 yildagi O'RQ-515-son

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.01.2019 yildagi O'RQ-515-son

imkoniyatini oshiradi. Natijada, sudda olingan ko'rsatmalar ishonchliligi yuqori bo'ladi va dalil maqbulligi mustahkamlanadi. Shaxsni, uy-joy va boshqa mol-mulkni qo'riqlash orqali tahdid va bosimdan himoya qilish orqali guvohlarning ko'rsatmalarini manipulyatsiyadan saqlaydi. Qo'riqlash choralari tufayli guvohlar o'z ko'rsatmalarini to'liq va haqqoniy beradi. Bu esa dalillarning sudda qabul qilinish darajasini oshiradi va jinoyat protsessining adolatini ta'minlaydi. Maxsus individual himoya vositalari va texnik vositalar berish, masalan, qo'riqlash texnik vositalari, monitoring tizimlari guvoh va jabrlanuvchini himoya qiladi. Bu chora ko'rsatmalarni manipulyatsiya qilish ehtimolini kamaytiradi, natijada dalil sifatini yaxshilaydi. Vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish esa, guvoh yoki jabrlanuvchini xavfli hududdan vaqtincha olib chiqish tahdididan himoya qiladi. Shu bilan ularni tinch va qo'rquvsiz so'roq qilish mumkin bo'ladi, ko'rsatmalarining to'liqligi va aniqligi oshadi. Bundan tashqari, ularni boshqa yashash joyiga ko'chirish, ish yoki o'qish joyini o'zgartirish tahdidni uzoqlashtirish va bosimni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada, guvohlar ko'rsatmalarini xolis va haqqoniy beradi, dalilning suddagi maqbulligi oshadi. Hujjatlarni almashtirish holati esa, himoya qilinuvchi shaxsning identifikatsion ma'lumotlari yoki manzili o'zgartiriladi. Shu orqali xavfsizlik ta'minlanadi va guvohlarning erkin ko'rsatma berishi kafolatlanadi, bu esa dalil sifatini oshiradi. Himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni cheklash bo'lsa, ma'lumotlarni nazorat ostida saqlash tahdidni kamaytiradi. bu guvohlarning to'liq va aniq ko'rsatma berishini ta'minlaydi, dalillar sudda yuqori maqbullikka ega bo'ladi. Qamoqda yoki jazoni o'tash joylarida qo'shimcha xavfsizlik choralari ta'minlash - jazoni o'tayotgan shaxslar bilan bog'liq tahdidlarni kamaytiradi.

Bu harakatlar guvohlar yoki jabrlanuvchilar xavfsizligini saqlash va ko'rsatmalarini xolis berish imkoniyatini oshirishi bilan birgalikda o'zining ba'zi salbiy jihatlariga ham egadir. Guvoh va jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash choralari qo'llash jinoyat protsessida dalillarning to'g'ri va ishonchli bo'lishini kafolatlasada ularning yashirin tarzda olingani ba'zi hollarda tortishuv prinsipi va dalilning haqiqiylikiga shubha uyg'otishi masalasini yuzaga keltiradi. Tortishuv prinsipi sudda barcha dalillarni ochiq va muhokama qilinishini, advokat va tomonlarga tanish bo'lishini nazarda tutadi. Guvoh yashirin so'roq qilinsa, advokat uning shaxsini yoki so'roq jarayonini to'liq bilmasligi mumkin. Bu esa ba'zan himoya huquqi bilan himoyalangan ayblanuvchi yoki uchinchi shaxsning dalilni baholash imkoniyatini cheklashi mumkin. Ba'zi hollarda, guvohning yashirinligi yoki xavfsizlik choralari ko'p bo'lishi tomonlarda dalil ishonchliligiga shubha uyg'otishi mumkin. Shu sababli, qonunchilikda bu tartibni qo'llashda jarayonning huquqiy asoslarini aniq belgilash muhimdir.

Ushbu masalani tahlil qilishda biz chet el davlatlar tajribasiga tayanadigan bo'lsak, Germaniya qonunchiligida advokat yashirin guvoh bilan bevosita ishlash huquqi maxsus norma bilan emas, lekin advokatning jarayonga kirishi va guvoh ko'rsatmalarini tinglash huquqi orqali ta'minlanadi. Shu orqali advokat guvoh xavfsizligini saqlagan holda tortishuv prinsipini buzmaydi va dalillarning haqiqiylikini baholay oladi. Bu jarayon sud nazorati ostida amalga oshadi. Aynan manashunday amaliyotni biz Italiya, Buyuk Britaniya qonunchiligida ham ko'rishimiz mumkin. Unda advokatlar yashirin guvohlar bilan ishlash va ko'rsatmalarini baholash huquqiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu orqali dalillar maqbulligi va tortishuv prinsipi saqlanadi.

Chet el tajribasini o'rganish va O'zbekiston qonunchiligini tahlil qilish orqali men ushbu maqolada quyidagi takliflarni keltirdim:

**Birinchi**dan, yashirin guvohlar bilan ishlash mexanizmini qonunchilikka kiritishni, O'zbekistonda advokatlar sud nazorati ostida yashirin guvohlarning ko'rsatmalarini tinglash va baholash huquqiga ega bo'lishi qonun bilan mustahkamlanishi kerak.

**Ikkinchidan**, dalillar maqbulligi va tortishuv prinsipini mustahkamlash orqali advokatning yashirin guvoh ko'rsatmalarini tinglash huquqi dalil ishonchliligini oshirish va tortishuv prinsipini himoya qilishga xizmat qiladi.

**Uchinchidan**, xorijiy tajribalarni joriy etish Germaniya (StPO §138) va Italiya (CPP art. 391) kabi mexanizmlarni o'zlashtirish orqali guvoh va jabrlanuvchilar xavfsizligi hamda sud adolati kuchaytirilishi mumkin.

Yakuniy xulosa qiladigon bo'lsak, jinoyat protsessida guvohlar, jabrlanuvchilar va boshqa ishtirokchilarning xavfsizligi adolatning ajralmas qismidir. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, yashirin guvohlarning ko'rsatmalari dalil sifatida ishonchliligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda mavjud qonunchilik guvoh va jabrlanuvchilar xavfsizligini ta'minlash choralari belgilaydi, ammo advokatning yashirin guvoh ko'rsatmalarini sud nazorati ostida baholash huquqi rasmiy ravishda tartibga solinmagan. Shu bilan, guvoh va jabrlanuvchilarning himoyasi bilan birga dalillar maqbulligi va sud adolati to'liq ta'minlanmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 01.04.1995
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.08.2018 yildagi 24-son
3. Jinoyat protsessida dalillar va isbotlash darslik Toshkent 2021
4. <https://www.dissercat.com/content/osobennosti-dokazyvaniya-po-ugolovnym-delam-pokotorym-prinimayutsya-mery-bezopasnosti-v-otn/read>
5. [https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/\\_138.html](https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/_138.html)
6. <https://www.normattiva.it/uri-res/N2Ls?urn:nir:stato:codice.procedura.penale:1988;art391>
7. <https://www.dissercat.com/content/osobennosti-dokazyvaniya-po-ugolovnym-delam-pokotorym-prinimayutsya-mery-bezopasnosti-v-otn/read>
8. Criminal Procedure Rules 2020 (CPR 2020)
9. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1999/23/contents>